МЕТОДЫ ОПТИМИЗАЦИИ РАБОТЫ ЭКСКАВАТОРНО-АВТОМОБИЛЬНОГО КОМПЛЕКСА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТИ НА ОТКРЫТЫХ ГОРНЫХ РАБОТАХ	884
Аннакулов Тулкин Жовбекович, Нормонов Шамсиддин Нураддинович	
ПРОГНОЗИРУЮЩЕЕ УПРАВЛЕНИЕ СЛОЖНЫМИ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИМИ ПРОЦЕССАМИ И ПРОИЗВОДСТВАМИ НА ОСНОВЕ НЕЙРОННЫХ СЕТЕЙ	892
Гулямов Шухрат Манапович	



OLIY TA'LIM TASHKILOTI SUBYEKTLARIDA BUDJET MABLAG'LARI BO'YICHA XARAJATLAR HISOBINI YURITISH	896
<i>Xonimqulov Islom Ergash o'g'li</i>	
XIZMAT KO'RSATUVCHI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA MODDIY-TEXNIKA RESURSLARINI BOSHQARISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR	901
<i>Kamoliddinov Ilxomjon Muxammadjonovich</i>	
THE HIDE AND SHADOW ECONOMY IN UZBEKISTAN	905
<i>Koshanov Abdimurat Azat uli, Abdimuratova Altingul Kalbayevna</i>	
SHAHAR AGLOMERATSIYALARI FAOLIYATINI TAHLIL QILISH VA BAHOLASH.....	910
<i>Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich</i>	
MOL-MULK SOLIG'I HISOB VA UNI TAKOMILLASHTIRISH	914
<i>Sh.M.Ergashev</i>	
HUDUDLARDA QURILISH OBYEKTLARINI QURILISH MATERIALLARI BILAN TA'MINLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	918
<i>Najimov Iskander Perdebayevich</i>	
TOVAR MODDIY ZAXIRALAR AUDITIDA TAHLILY AMALLARNI O'TKAZISH VA ULARNING BOSQICHLARI.....	922
<i>Tajekeev Ziyatdin Kobeytinovich</i>	
МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К УПРАВЛЕНИЮ ЗАТРАТАМИ ПРЕДПРИЯТИЯ В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА	927
<i>Минутдинова Лилия Тагировна</i>	
МОДЕРНИЗАЦИЯ ОСВЕЩЕНИЯ САЛОНОВ ВАГОНОВ МЕТРОПОЛИТЕНА ПУТЕМ ЗАМЕНЫ ЛАМП НАКАЛИВАНИЯ ЛБ-40 (ЛБ-36) НА СВЕТОДИОДНЫЕ LED-ЛАМПЫ	934
<i>Файзуллаев Асомитдин Аловитдинович, Нематов Эркин Хамраевич, Пирназаров Шохрух Холмурод угли</i>	
HUDUDY BARQAROR O'SISHDA INKLYUZIV IQTISODIY MEKANIZMLARNING ROLI	939
<i>Xamroqulov M.J.</i>	
UZBEKISTAN'S HIGHER EDUCATION SYSTEM STRENGTHENS ITS POSITION ON THE INTERNATIONAL STAGE.....	944
<i>Umarov Diyor Ravshanovich</i>	
YANGI TAKOMILLASHTIRILGAN PAXTA SEPARATORINI KORXONADA SINOV JARAYONIDAN O'TKAZISH.....	949
<i>Raximov Akbar Xolmurodovich</i>	
KICHIK BIZNESNI MOLIYALASHTIRISHNING OSIYO DAVLATLARI TAJRIBALARI: TAHLILY YONDASHUV	953
<i>Annaklichev Saxi Saparmuxamedovich</i>	
КИНЕТИЧЕСКАЯ АРХИТЕКТУРА НА ПРИМЕРЕ ДИНАМИЧЕСКИХ ФАСАДОВ	958
<i>Хаитов Суннатжон Истамович</i>	
TIJORAT BANKLARIDA MARKETING FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH VA UNING AMALIY IMKONIYATLARI.....	963
<i>Ibragimova Shahlo Alimbayevna</i>	
ЗАКОНОМЕРНОСТИ ДЕСУЛЬФУРАЦИИ МЕТАЛЛА ШВА В ЗАВИСИМОСТИ ОТ СОСТАВА ШЛАКООБРАЗУЮЩЕЙ ОСНОВЫ ФЛЮСОВ	969
<i>Абралов Музаффар Махмудович</i>	
РОЛЬ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА И ИННОВАЦИОННОЙ МОДЕРНИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ	975
<i>Бахрамов Зиядулла Баходирходжаевич</i>	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINING INNOVATSION RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	979
<i>Yuldasheva Mexrunisa Qasimjan qizi</i>	
OLIY TA'LIM SOHASINI DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA TRANSFORMATSIYA QILISHNING INSTITUTSIONAL VA ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI	984
<i>Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li</i>	



XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONDA DAVLAT AKTIVLARI BO'YICHA INTERAKTIV MA'LUMOTLAR BAZASINI YARATISH ORQALI BUDJET XARAJATLARINI TAHLIL QILISH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH.....	989
Dilshod Pulatov, Gulzara Kaxxarova	
TEMIR YO'L TRANSPORTINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	994
Raximov Xasan Shukurjonovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI	1000
Yuldashev Doniyor Tairovich	
PENSIYA JAMG'ARMALARIDA HISOBNI TASHKIL ETISH VA XARAJATLAR SMETASI IJROSI BO'YICHA HISOBOTI TAHLILI	1005
Nurmanov Karjavbay Tilevbaevich, Nurmanov Din-Axmed Tilevbaevich	



PENSIYA JAMG'ARMALARIDA HISOBNI TASHKIL ETISH VA XARAJATLAR SMETASI IJROSI BO'YICHA HISOBOTI TAHLILI

Nurmanov Karjavbay Tilevbaevich

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti, PhD

Nurmanov Din-Axmed Tilevbaevich

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali dotsenti, PhD

Annotatsiya. Mazkur maqolada pensiya jamg'armalarida hisobni tashkil etish hamda xarajatlar smetasi ijrosining hisoboti tahlili yoritilgan. Pensiyalarning joriy yetkazilishi masalasi bo'yicha iqtisodchi-olimlar va soha mutaxassislarining ilmiy qarashlari, ta'riflari va yondashuvlari o'rganilgan. Tadqiqot davomida pensiya jamg'armalarida buxgalteriya hisobini tashkil etish va xarajatlar smetasi ijrosi bo'yicha hisobotlarni tahlil qilishga doir xulosalar shakllantirilib, amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: pensiya jamg'armalari, buxgalteriya hisobi, hisobni tashkil etish, xarajatlar smetasi, hisobot tahlili.

Abstract. This article examines the analysis of reporting on the organization of accounting and the implementation of expense budgets in pension funds. The study reviews the definitions, scientific approaches, and perspectives of economists and industry experts regarding the modern development of pension provision. Based on the analysis, conclusions are drawn and practical recommendations are proposed to improve the accounting organization and the analysis of expense budget implementation in pension funds.

Keywords: pension funds, accounting, accounting organization, expense budgets, report analysis.

Аннотация. В данной статье рассматривается анализ отчётности по организации бухгалтерского учёта и исполнению смет расходов в пенсионных фондах. Изучены научные определения, подходы и взгляды экономистов и специалистов отрасли к вопросам современного развития пенсионного обеспечения. По результатам исследования сформулированы выводы и разработаны практические рекомендации по совершенствованию анализа отчётности в пенсионных фондах.

Ключевые слова: пенсионные фонды, бухгалтерский учёт, организация бухгалтерского учёта, сметы расходов, анализ отчётности.

KIRISH

Yevropa statistika tashkiloti bashoratiga ko'ra, keyingi 50 yil davomida Yevropa mamlakatlari aholisining qarishi kuzatiladi. Bunda Chexiya aholisi yoshining yanada tez sur'atlar bilan o'sishi taxmin qilinadi. Yevropa Ittifoqi tarkibidagi Chexiya Respublikasida pensiya tizimi uch bo'g'indan — davlat, jamg'ariladigan va xususiy pensiya fondlaridan iborat. Pensiya miqdori asosiy miqdor hamda daromad va ish stajidan shakllanadi. Chexiyada majburiy sug'urta badallarini to'lovchilar soni 8,5 mln. kishini tashkil etib, ulardan 5 mln. nafari yollanma ishchilar va xususiy tadbirkorlardir [1].

Xorijlik iqtisodchi olim A. Karlson fikricha, "pensiyalarning joriy yetkazilishi bolalarning o'zlarining keksalik yoshiga qo'ygan sarmoyasi sifatidagi iqtisodiy ahamiyatini yo'qqa chiqaradi va iqtisodiy foyda bo'lmagan taqdirda odamlar xarajatlarni minimallashtirish maqsadida atayin imkon qadar kamroq farzandlarni dunyoga keltirishni boshlaydilar", — deb ta'kidlaydi [2].



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mamlakatimiz soha mutaxassisi N. Raxmonov ta'kidlashicha, "o'zgarmas ta'minotli pensiya rejalarini taklif etmaydigan ish beruvchilarning buxgalteriya balanslarida profitsit riski (badallarning majburiyatlardan ortib ketish ehtimoli) kuzatilmaydi va ishchining nafaqa rejasiga o'tkazib boriladigan o'tkazmalar, odatda, o'zgarmas xususiyatga ega bo'ladi. Mazkur ish beruvchilar qaytim stavkalari past bo'lgan vaqtda pensiya xarajatlarining o'sib ketishiga duch kelmaydilar va shu bilan birgalikda, daromadlilik darajasi yuqori bo'lgan bir davrda pensiya xarajatlarining odatdagidan ortgan summasini ishlab olish imkoniyatini boy beradilar" [3].

"Iqtisodiy rivojlanishda NPFning muhim o'rni nafaqat qo'shimcha pensiya ta'minoti sohasida xizmat ko'rsatish, balki tadbirkorlik subyektlari va aholining erkin moliyaviy resurslarini qayta taqsimlab, iqtisodiyot real sektorining investitsion ehtiyojlarini qondirishdir" [4]. Ta'kidlash joizki, pensiya jamg'armalari bo'yicha standartlarni ishlab chiqish davlat xizmatlarini ko'rsatish uchun zarur bo'lgan moddiy va mehnat resurslarini aniq belgilash hamda alohida foydalanuvchilarga xizmatlar ko'rsatish uchun zarur bo'lgan xarajatlar hajmini aniqlash orqali davlat xizmatlari samaradorligini oshirish vositasi sifatida qaralmoqda.

Iqtisodchi olim N. Novikova fikricha, "nodavlat pensiya jamg'armasi xarajatlari tarkibining muhim xususiyati shundaki, ularda asosiy vositalarning eskirishi mavjud emas hisoblanadi. Nodavlat pensiya jamg'armalarida asosiy vositalar uchun amortizatsiya ajratmalari hisoblanmaydi. Jamg'armaning asosiy fondlari bo'yicha amortizatsiya hisoblash balansdan tashqari 010-«Asosiy vositalarning amortizatsiyasi» hisobida aks ettiriladi" [5]. Yuqoridagi fikrlarga qo'shilgan holda shuni ta'kidlash lozimki, respublikamizda faoliyat yuritayotgan budjetdan tashqari pensiya jamg'armalari Iqtisodiyot va moliya vazirligi balansidagi binolarda joylashganligi sababli amortizatsiya ajratmalari amalga oshirilmaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur ilmiy maqolada tadqiqot metodologiyasi sifatida pensiya jamg'armalarida hisobni tashkil etish va xarajatlar smetasi ijrosi bo'yicha hisobotlarni o'rganishga qaratilgan kompleks yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotda ma'lumotlar asosan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi va normativ-huquqiy hujjatlarda keltirilgan rasmiy statistik hisobotlar, moliyaviy hujjatlar hamda buxgalteriya hisobi shakllaridan olindi. Shuningdek, amaldagi buxgalteriya hisobi standartlari va hisobvaraqlar rejasi asosida tuzilgan smeta va hisobot ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlar dinamik, taqqoslama va mantiqiy tahlil usullari yordamida qayta ishlanib, xarajatlar tarkibi, ularning ijro darajasi hamda reja va haqiqiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi tafovutlar aniqlandi. Tadqiqot natijalari umumlashtirish va xulosalash orqali baholanib, mavjud amaliyotni takomillashtirishga xizmat qiluvchi ilmiy xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

"O'zbekistonning ijtimoiy ta'minot tizimida pensiya va nafaqalar to'lash miqdori va hajmi yildan yilga o'sib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 17-noyabrdagi "Ish haqi, pensiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida"gi PF-196-sonli¹ Farmoniga binoan aholi turmush darajasini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ko'lamini kengaytirish, fuqarolarning daromadlarini izchil oshirib borish siyosatini davom ettirish hamda ularning ijtimoiy muhofazasini kuchaytirish maqsadida 2023-yil 1-dekabrdan boshlab budjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiyalar va nafaqalar miqdori 7 foizga hamda bazaviy hisoblash miqdori 3 foizga oshirildi" [6].

Mamlakatimizda Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi tomonidan 2015–2023-yillarda yangi tayinlangan pensiya va nafaqalar dinamikasi to'g'risidagi tahliliy ma'lumotlar 1-jadvalda aks ettirilgan.

1-jadval. Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limlari tomonidan 2015-2023-yillar yanvar-fevral oylarida yangi tayinlangan pensiya va nafaqalar soni to'g'risida TAHLILiy ma'lumot²

№	Yillar	Yanvar			Fevral		
		Jami	shundan:		Jami	shundan:	
			pensiya	nafaqa		pensiya	nafaqa
1.	2015	13 629	11442	2187	16 577	13960	2617
2.	2016	18 652	16226	2426	20 188	17295	2893
3.	2017	21 203	17900	3303	24 669	20467	4202

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 17-noyabrdagi "Ish haqi, pensiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida"gi PF-196-sonli Farmoni: <https://lex.uz/uz/docs/-6665682?%2000>

2 Manba. Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi



4.	2018	26 029	22084	3945	27 200	22 679	4521
5.	2019	28 433	23835	4598	28 599	23 752	4 847
6.	2020	26 316	21626	4690	31 388	25 620	5 768
7.	2021	27 561	22197	5364	28 351	22 139	6 212
8.	2022	29 991	24010	5981	31 538	24 480	7 058
9.	2023	33 609	22724	10885	25 218	20 800	4 418

Jadval ma'lumotlarining ko'rsatishicha, 2015-yilga nisbatan jami yangi tayinlangan pensiya va nafaqalar soni 2023-yilning yanvar oyida 2,5 baravarga oshgan. Shu davrning fevral oyida esa ushbu ko'rsatkich 1,5 baravarga o'sganligini kuzatish mumkin.

Hozirgi kunda respublikamizda pensiya va nafaqalarning quyidagi turlari qo'llanilmoqda: yoshga doir nafaqa; bolalikdan nogironligi bo'lgan farzandi bor (bo'lgan) onalarga yoshga doir nafaqa; I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga nogironlik nafaqasi; boquvchisini yo'qotganlik nafaqasi; OIV infeksiyasiga chalingan hamda 18 yoshgacha nogironligi bo'lgan bolalarga nafaqa; 18 yoshdan katta I va II guruh nogironligi bolalikdan bo'lgan shaxslarga nafaqa; parvarishlash nafaqasi.

Yuqoridagi pensiya va nafaqalarning turlari bo'yicha pensiya jamg'armalarining buxgalteriya bo'limlarida xarajatlarning analitik va sintetik hisobi tashkil etiladi. 2021-yildan buyon pensiya jamg'armalarining buxgalteriya hisobi markazlashtirilgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar pensiya jamg'armalarida yuritilmoqda. Hisob jarayonlarida budget tashkilotlari uchun maxsus ishlab chiqilgan "UZASBO" dasturining 2-versiyasi qo'llanilmoqda.

"Respublikamizda faoliyat yuritayotgan Budgetdan tashqari pensiya jamg'armalarida xarajatlari hisobi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2010-yil 22-dekabrda "Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida"gi 2169-1-son³ buyrug'iga binoan amalga oshiriladi" [7].

"O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2022-yil 29-dekabrda 06/03-16-/21-son xatiga binoan O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2018-yil 10-sentyabrda 125-son buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Budget hisobining standarti (2-sonli BHS) — "Yagona hisobvaraqlar rejası" (ro'yxat raqami 3078, 2018-yil 20-oktyabr) 2023-yil 1-yanvardan UzASBO dasturiy majmuasiga joriy etildi" [8].

Mazkur ko'rsatmaga muvofiq budget tashkilotlarining, shu jumladan Budgetdan tashqari pensiya jamg'armalarining 2022-yil uchun barcha yillik hisobotlari buxgalteriya hisobining amaldagi tartibi bo'yicha (o'zgarishsiz) tuzilishi va taqdim qilinishi belgilab qo'yilgan.

2023-yil 1-yanvardan boshlab buxgalteriya hisobini yuritish, buxgalteriya hisobotlarini tuzish hamda taqdim etish Budget hisobining standarti (2-sonli BHS) — "Yagona hisobvaraqlar rejası" va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar asosida UzASBO dasturiy majmuasining yangilangan versiyasi orqali amalga oshirilmoqda.

2-jadval. Budgetdan tashqari pensiya jamg'armalarida xarajatlarni hisobga olish uchun tavsiya etilgan hisobvaraqlarni amaldagi va yangi hisobvaraqlar rejası bo'yicha solishtirma tasnifi⁴

Amaldagi Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobining HISOBVARAQLAR REJASI			O'zbekiston Respublikasi Budget hisobining standarti YAGONA HISOBVARAQLAR REJASI		
Hisob- varaqlar raqami	Subhisob- varaqlar raqami	Subhisobvaraqlarning nomi	Bo'lim	Kichik bo'lim	Subhisobvaraqlarning nomi
09	091	Tovar-moddiy zaxiralarga boshqa xarajatlari	170	000	Tovar-moddiy zaxiralarga xarajatlari
	090	Tovar (ish, xizmat)larga xarajatlari	180	000	Tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) xarajatlari
20	201	Asosiy vositalar va boshqa aktivlar realizatsiyasi	911	000	Nomoliyaviy aktivlar realizatsiyasi
21	210	Taqsimlanadigan xarajatlari	912	100	Taqsimlanmagan xarajatlari
	211	davr xarajatlari	912	200	davr xarajatlari

3 O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2010-yil 22-dekabrda "Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida"gi 2169-1-son buyrug'i: <https://lex.uz/en/docs/-3150153>

4 Manba. O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligining 2022-yil 29-dekabrda 06/03-16-/21-son xati 1-ilovasi asosida muallif ishlanmasi [8].

23	231	Budjet mablag'lari bo'yicha haqiqiy xarajatlar	710	000	Budjet mablag'laridan hisoblangan haqiqiy xarajatlar
	232	Budjetdan moliyalashtirish	503	000	Budjetdan moliyalashtirish
24	241	To'lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblar bo'yicha mablag'lar hisobiga amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar	720	000	To'lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblar bo'yicha mablag'lar hisobiga amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar
25	251	Ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shaklidan tushgan tushumlar hisobidan amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar	730	000	Ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shaklidan tushgan tushumlar hisobidan amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar
26	261	Budjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar	741	000	Budjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar
			742	000	Tibbiyot tashkilotlarining moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar
27	271	Boshqa daromadlar bo'yicha haqiqiy xarajatlar	750	000	Boshqa daromadlar bo'yicha haqiqiy xarajatlar

Mazkur Budjet hisobining standarti (2-sonli BHS) — “Yagona hisobvaraqlar rejasi”ning amaliyotga joriy etilishi natijasida Budjet hisobi va hisobot tizimidagi xodimlar oldida muayyan tashkiliy muammolar yuzaga kelayotgani kuzatilmoqda. Mutasaddi vazirliklar tomonidan yangi va amaldagi hisobvaraqlar rejasi bo'yicha o'zaro muvofiqlik jadvali, shuningdek budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasi bo'yicha subhisobvaraqlar korrespondensiyasi ishlab chiqildi (3-jadval).

3-jadval. Qoraqalpog'iston Respublikasi Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi boshqarmasining 2021-yil 1-yanvar holatiga xarajatlar smetasi ijrosi bo'yicha hisoboti TAHLILI, ming so'm⁵

Xarajatlarning turi	Tasdiqlangan (aniqlash-tirilgan) reja	Hisobot davrida moliyalash-tirilgan	Kassa xarajatlari, hammasi	Haqiqiy xarajatlar, hammasi
1	2	3	4	5
Ish haqi	784 611,0	761 703,8	761 703,8	765 425,7
Vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yo'qotganlik nafaqasi		22 906,6	22 906,6	22 127,5
I-guruh “Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar”	784 611,0	784 610,3	784 610,3	787 553,2
Ijtimoiy ehtiyojlar uchun ajratmalar / badallar	158 084,0	158 083,7	158 083,7	159 443,2
Yagona ijtimoiy to'lov	157 729,0	157 728,7	157 728,7	159 088,2
Ijtimoiy ehtiyojlar uchun boshqa ajratmalar / badallar	355,0	355,0	355,0	355,0
Tovarlar va xizmatlar bo'yicha xarajatlar	48 946,0		48 945,0	48 130,1
Safar xarajatlari	4 256,7		4 256,7	4 256,7
Saqlash va joriy ta'mirlash xarajatlari	5 248,5		5 248,5	5 248,5
moddiy aylanma zaxiralarning xarajati	22 513,6		22 513,6	22 503,4
Tovar va xizmatlar xaridi uchun boshqa xarajatlar	16 927,2		16 926,2	16 121,5
Telefon, telekommunikatsiya va axborot xizmatlari	12 464,0		12 464,0	11 659,3
Shu jumladan, tovar va xizmatlar xaridi uchun boshqa xarajatlar	4 463,2		4 462,2	4 462,2

5 Manba. Qoraqalpog'iston Respublikasi Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi boshqarmasining xarajatlar smetasi ijrosi bo'yicha hisoboti (2-shakl) ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi



Asosiy vositalar bo'yicha xarajatlar				40 448,8
Elektron davlat xaridlarida ishtirok etish uchun garov to'lovi xarajatlari	100,0		100,0	100,0
IV-guruh "Boshqa xarajatlar"	49 046,0	49 045,0	49 045,0	88 678,9
Hammasi	991 741,0	991 739,0	991 739,0	1 035 675,4

“O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining 2023-yil 27-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi budjet hisobining standarti (2-sonli BHS) “Yagona schyotlar rejasi”ga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 45-sonli⁶ buyrug‘iga binoan ushbu standartning amal qilish doirasi g‘aznachilik xizmati bo‘linmalari, iqtisodiyot va moliya organlari, davlat va boshqa maqsadli jamg‘armalarni taqsimlovchi organlar hamda barcha budjet tashkilotlari faoliyatini qamrab olishi belgilab qo‘yildi. Mazkur o‘zgartirish va qo‘shimchalarga muvofiq ayrim moddalaridagi “boshqa majburiy to‘lovlar” iborasi “yig‘imlar” so‘zi bilan almashtirildi” [9].

3-jadval ma‘lumotlarining ko‘rsatishicha, tahlil qilinayotgan davrda Budjetdan tashqari pensiya jamg‘armasining xarajatlar smetasi bo‘yicha hisoboti (2-shakl) respublikamizdagi boshqa budjet tashkilotlari hisobot shakllariga mos bo‘lib, unda gorizontaal kesimda tasdiqlangan (aniqlashtirilgan) reja, hisobot davrida moliyalashtirilgan mablag‘lar, kassa xarajatlari hamda haqiqiy xarajatlar to‘liq aks ettirilgan. Budjet xarajatlari klassifikatoriga muvofiq xarajatlar asosan uchta guruh bo‘yicha taqsimlangan. Boshqarmaning 2021-yil 1-yanvar holatiga xarajatlari jami tasdiqlangan (aniqlashtirilgan) reja bo‘yicha 991 741,0 ming so‘mni, hisobot davrida moliyalashtirilgani 991 739,0 ming so‘mni, kassa xarajatlari 991 739,0 ming so‘mni hamda haqiqiy xarajatlar 1 035 675,4 ming so‘mni tashkil etgan. Demak, jamg‘armaning haqiqiy xarajatlari tasdiqlangan (aniqlashtirilgan) rejadani 43 934,4 ming so‘mga ortiqcha ijro etilgan bo‘lib, bu holat smeta ijrosini yanada mustahkamlash zarurligini ko‘rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Budjetdan tashqari pensiya jamg‘armalarida xarajatlar hisobi va hisobotini takomillashtirish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

- respublikamizda faoliyat yuritayotgan pensiya jamg‘armalarining hisob tizimini xalqaro standartlar talablariga moslashtirish maqsadida yagona hisobvaraqlar rejasini qo‘llash bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar ishlab chiqish zarur, deb hisoblaymiz;
- budjetdan tashqari pensiya jamg‘armalarida qo‘llanilayotgan UzASBO dasturi bilan banklar, sug‘urta kompaniyalari va xo‘jalik subyektlari tomonidan foydalanilayotgan turli kompyuter dasturlarini o‘zaro muvofiqlashtirish axborot-tahlil jarayonlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi;
- mamlakatimizda nodavlat tashkilotlarining rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratilayotgan sharoitda jamg‘armalar amaliyotidagi xarajatlar hisobi va hisobot registrlarini identifikatsiyalash hamda unifikatsiyalash maqsadga muvofiqdir. Xususan, pensiya jamg‘armalari smeta xarajatlari tarkibida kapital qo‘yilmalar xarajatlarini alohida guruh sifatida aks ettirish nodavlat pensiya jamg‘armalarining shakllanishi va sog‘lom raqobatning kuchayishiga imkoniyat yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Raxmonov N. Pensiya ta‘minotida ish stajini hisobga olishining istiqbolli yo‘nalishlar tahlili. Scientific Journal of “International Finance & Accounting”, Issue 6, December 2022. ISSN: 2181-1016.
2. Karlson, Allan. Obshchestvo — semya — lichnost: sotsialnyy krizis Ameriki: Amerikanskaya shkola alternativnoy sotsiologii / Allan Karlson; ingliz tilidan tarjima, A. I. Antonov tahriri ostida. — Moskva: Graal, 2003. — 284 s. — (Sotsialnaya mysl Zapada). ISBN 5-94688-031-4.
3. Raxmonov N. Mehnat faoliyati davomida jamg‘arilgan mablag‘lardan investitsiya sifatida foydalanishning pensiya tizimiga ta‘siri. Moliya va bank ishi jurnali, 3 (2022), 153–159.
4. Yuryeva I. (2015). Sovershenstvovanie sistemy upravleniya razmeshcheniem sobstvennykh sredstv negosudarstvennykh pensionnykh fondov. Azimut nauchnykh issledovaniy: ekonomika i upravlenie, Moskva, № 3 (12).
5. Novikova N. Osobennosti ucheta dokhodov i raskhodov negosudarstvennogo pensionnogo fonda. Bukhgalterskiy uchët v byudzhetykh i nekommercheskikh organizatsiyakh, 7 (367), 2015.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 17-noyabrda “Ish haqi, pensiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to‘g‘risida”gi PF-196-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/6665682>
7. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2010-yil 22-dekabrda “Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida”gi 2169-son buyrug‘i. <https://lex.uz/docs/1714689>

6 “O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining 2023-yil 27-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi budjet hisobining standarti (2-sonli BHS) “Yagona schyotlar rejasi”ga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 45-sonli buyrug‘i: <https://lex.uz/acts/-6533213>



8. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2022-yil 29-dekabrda 06/03-16-/21-son xatiga 1-ilova. "Yangi va amaldagi hisobvaraqlar rejasi bo'yicha o'zaro muvofiqlik jadvali".
9. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining 2023-yil 27-iyundagi 45-son "O'zbekiston Respublikasi Budget hisobining standarti (2-sonli BHS) — 'Yagona schyotlar rejasi'ga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi buyrug'i (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2023-yil 14-iyulda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 3078-3). <https://lex.uz/ru/docs/6533213>



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100